



2023- yil aprel


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA YIG‘MA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % da


Iste‘mol narxlari indeksi (INI) iste‘mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatorini sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

APREL OYIDAGI YIG‘MA INI


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning apreliga nisbatan




2023- yilning aprel oyida oylik INI **100,8 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **103,3 %** ni tashkil etdi. INI o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati joriy yilning yanvar-aprelida **0,8 %** ga yetdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning apreliga nisbatan) yig‘ma INI **111,0 %** darajasida qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AYRIM XORIJIY DAVLATLARDAGI YIG‘MA INI, % da

2023- yilning mart oyida ayrim davlatlardagi* yig‘ma INI, % da



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning martiga nisbatan

*milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko'plab davlatlarida, shu jumladan, qo'shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko'magi ostida joriy qilingan.

INIning shakllantirishga "Iste'mol narxlarini indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlarini (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlarini indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo'lib xizmat qiladi <https://lib.stat.uz>.



MART OYIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR INI, % da

2023- yilning aprelida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **100,9 %** ni, xizmatlar bo'yicha esa – **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko'rsatkich mos ravishda **103,6 %** va **102,2 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko'rsatkich **111,7%** va **108,6 %** ni tashkil etdi.



TOVARLAR

XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning apreliga nisbatan



Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oying 10- sanasidan 20- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi. Har oyda **10 mingdan ortiq** savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan ortiq** narx kotirovkalari qayd etiladi.


TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

JAMI **510**

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun shakllantirilgan **510 ta pozitsiyadan** iborat tovarlar va xizmatlar to'plami uchta yirik guruhga bo'lingan.



- oziq-ovqat mahsulotlari
- nooziq-ovqat mahsulotlar
- xizmatlar



2023- yilning aprelida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha qisqa muddatli INI **101,2 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha **100,5 %** ni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-aprelida INI oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha **104,7 %** ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha esa **102,2 %** ga yetdi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **113,7 %** va **109,3 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,6 %** darajasida qayd etildi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da




aprel

o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning apreliga nisbatan




YIG'MA INI



TOVARLAR



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o'zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning aprelidagi qisqa muddatli INI **100,7 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko'rsatkich **102,3 %** darajasida, 2022- yilning apreliga nisbatan esa – **112,0 %** darajasida qayd etildi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

aprel o'tgan oyga nisbatan


Ta'siri, f.d.



2023- yilning aprelida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining oylik yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **0,53 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining **64,6 %** i to'g'ri keldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ta'siri ulushi umumiy ta'sir darjasida **23,2 %** ni (ta'sir **0,19 f.d.**) va xizmatlar ta'siri ulushi esa **12,2 %** ni (ta'siri **0,10 f.d.**) tashkil etdi.

Umumiy ta'sir darajasidagi uushi, % da



INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:



- 1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo'lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig'ma ko'rsatkich o'zgarishiga ta'siri pozitsiyaning narx o'zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

Ta'siri, f.d.

Umumiy ta'sirdagi ulushi, % da




2023- yilning yanvar-aprelda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri **2,01 f.d.** ni tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sir darajasining **61,3 %** i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlarning umumiy ta'sir darajasidagi ulushi **23,8 %** ni (ta'siri **+0,76 f.d.**) tashkil etdi. Xizmatlar narxlari o'zgarishining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past darajada bo'lib, **0,51 f.d. (15,5 %)**ga yetdi. Yillik nisbatdagi yig'ma INI tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy ta'sir darajasining **52,8 %** i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **29,2 %** va xizmatlar hissasiga **18,0 %** to'g'ri keldi.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020- yil 3- avgustdagi PQ-4796-sonli qarori** bilan tasdiqlangan 2020-2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning milliy strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”ning 36-bandi ijrosini ta‘minlash yuzasidan, 2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a‘zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste‘mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi.

aprel oyida o‘tgan oyga nisbatan*


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari



V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




VI. Sog‘liqni saqlash




* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

aprel oyida o‘tgan oyga nisbatan


VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




IX. Dam olish, sport va madaniyat



X. Ta’lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar




XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar




2023- yilning aprelida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) va “Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limlari bo‘yicha oylik qisqa muddatli INI **101,3 %** ni, “Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limi bo‘yicha **101,0 %** ni tashkil etdi. Boshqa bo‘limlar bo‘yicha indeks kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (**100,8 %**) past bo‘ldi. Shu bilan birga, “Transport” (VII) bo‘limida qisqa muddatli INI 100,0 lik darjadan past ko‘rsatkichni qayd etib, **99,6 %** ni tashkil etdi.

aprel oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




II. Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




III. Kiyim va poyabzal




IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari




V. Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




VI. Sog‘liqni saqlash



VII. Transport




VIII. Axborot va aloqa




aprel oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


IX. Dam olish, sport va madaniyat




X. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar




XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari



XII. Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar



XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar



IZOH: O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi

2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.

“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) va “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo‘limlarida 2023- yilning yanvar-aprelida INI **104,8 %** ni, “Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limida **104,2 %** ni, “Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida **103,8 %** ni, “Maishiy

tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” (XIII) bo‘limida **103,4 %** ni tashkil etdi.

Boshqa barcha bo‘limlarda INI joriy yil boshidan davr uchun kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (**103,3 %**) past bo‘ldi.

O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

aprel oyida o‘tgan yilning martiga nisbatan

I. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR		II. SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI		III. KIIYIMLAR VA POYABZAL	
2021- yil	113,6	2021- yil	110,6	2021- yil	107,1
2022- yil	113,3	2022- yil	109,0	2022- yil	107,1
2023- yil	113,4	2023- yil	110,7	2023- yil	107,8

IV. TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI		V. UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH		VI. SOG‘LIQNI SAQLASH	
2021- yil	108,0	2021- yil	109,0	2021- yil	111,5
2022- yil	103,0	2022- yil	109,5	2022- yil	109,0
2023- yil	105,3	2023- yil	110,8	2023- yil	116,9

VII. TRANSPORT		VIII. AXBOROT VA ALOQA		IX. DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT	
2021- yil	110,6	2021- yil	103,6	2021- yil	108,2
2022- yil	112,9	2022- yil	103,1	2022- yil	113,1
2023- yil	110,1	2023- yil	100,9	2023- yil	111,2

X. TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR		XI. RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI		XII. SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIIY XIZMATLAR	
2021- yil	103,5	2021- yil	115,8	2021- yil	104,6
2022- yil	111,2	2022- yil	116,3	2022- yil	101,2
2023- yil	102,6	2023- yil	122,1	2023- yil	104,6


XIII. MAISHIIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR	
2021- yil	111,5
2022- yil	111,0
2023- yil	113,0

2023- yilning aprelida yillik nisbatdagi INI “Transport” (VII) bo‘limi (-2,8 foiz bandga), “Axborot va aloqa” (VIII) bo‘limi (-2,2 foiz bandga), “Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limi (-1,9 foiz bandga) va “Ta‘lim sohasidagi xizmatlar” (X) (-8,6 foiz bandga) bo‘limi bo‘yicha o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan past darajada kuzatildi.


“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

aprel oyida o‘tgan oyga nisbatan


Donli ekinlar
va yorma mahsulotlari




Go‘sh t va go‘sh t
mahsulotlari




Baliq va boshqa
dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa
sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar




Mevalar va yong‘oqlar




Sabzavotlar, ildizmevalilar
va dukkakililar




Shakar, qandolat
mahsulotlari va desertlar



Tayyor oziq-ovqat
mahsulotlari va boshqa
oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2023- yilning aprelida yil boshidan ilk marotaba “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar” guruhiida narxlar pasayganligi kuzatildi. Mazkur mahsulotlar bo‘yicha INI aprel oyida **99,2%** ni tashkil etdi.

100,0 % lik chegaradan past darajadagi INI yog‘moy mahsulotlarida (**97,6%**) qayd etildi.

Go‘sh t mahsulotlari, mevalar va yong‘oqlar hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlardan tashqari bo‘limning aksariyat guruhlarida qisqa muddatli INI 2023- yilning aprelida o‘tgan yilning aprelidagi ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER” BO‘LIMI (I), % DA

aprel oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Go’sht mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Yog‘lar va moylar




2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Mevalar va yong‘oqlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

Spirtsiz ichimliklar



2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi bo‘yicha 2023- yilning aprelidagi 2022- yilning dekabriga nisbatan INI asosan meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy oshishi ta‘sirida shakllandi. Shunday qilib, bo‘lim bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (**104,8 %**) baland narx indeksi mevalar va yong‘oqlar (**111,5 %**), sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar (**117,6 %**) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**105,6 %**) guruhlarida qayd etildi.

Yog‘lar va moylar narxlarining 2022- yilning dekabriga nisbatan o‘rtacha darajasi pasayib, ushbu guruh bo‘yicha INI da namoyon bo‘ldi va **96,0 %** ni tashkil etdi.

“OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I), % DA

aprel oyida o‘tgan yilning apreliga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Go‘sh va go‘sh mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.



Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum



2021- y. 2022- y. 2023- y.



Yog‘lar va moylar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Mevalar va yong‘oqlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari



2021- y. 2022- y. 2023- y.

Spirtsiz ichimliklar





2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning aprelida “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari”, “Yog‘lar va moylar”, “Mevalar va yong‘oqlar”, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhlarida yillik nisbatdagi INI 2022- yilning aprelidagi mos ko‘rsatkichga qaraganda past darajada bo‘ldi. Shu bilan birga, joriy yilning aprelida mevalar va yong‘oqlar narxlarining o‘rtacha darajasi o‘tgan yilning mos oyidagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.


Guruch va guruch oqshog'i




Bug'doy uni




Suyakli mol go'shti




Qo'y go'shti




Sut





Tuxum



Kungaboqar yog'i



Shakar




■ o'tgan oyga nisbatan

■ o'tgan yilning dekabriga nisbatan


■ o'tgan yilning apreliga nisbatan

2023- YILNING APRELIDA ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning apreliga nisbatan




■ narxlari oshgan mahsulotlar
■ narxlari tushgan mahsulotlar

April oyida bir qator sabzavotlar narxida pasayish kuzatildi. Shu tariqa, 100 % lik darajadan past qisqa muddatli INI bodring, piyoz, bulg'ori qalampir, ko'katlar, kartoshka, qovoq, turp, baqlajonda qayd etildi.

2023- yilning to'rtta oyida kuzatiladigan sabzavot turlari orasida bodring narxida eng yuqori pasayish kuzatildi. Shuningdek, yillik nisbatdagi eng past INI bodringda qayd etildi.

2023- YIL APREL OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.da



- Spirtsiz ichimliklar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqatlar
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar
- Mevalar va yong'oqlar
- Yog'lar va moylar
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Go'sht mahsulotlari
- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari



Mevalar va yong'oqlar, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, go'sht mahsulotlari hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar narxlarining oshishi hisobiga joriy yilning aprelidagi qisqa muddatli yig'ma INI jami hisobda **0,58 f.d** oshdi. "Donli ekinlar va yorma mahsulotlari" va "Yog'lar va moylar" guruhlaridagi narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, ularning hisobiga yig'ma ko'rsatkich **0,11 f.d.** pasaydi.

2023- yilning yanvar-aprelidagi yig'ma INI o'sish sur'ati tuzilmasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari, sabzavotlar hamda mevalar va yong'oqlar ta'siri salmoqli bo'ldi (jami ta'siri **+1,48 f.d.**). Yog'-moy mahsulotlari narxining pasayishi yig'ma INI **0,11 f.d.** qisqarishiga sabab bo'ldi.


2023- yilning aprelida yillik nisbatdagi INI asosan donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi.

“SPIRTLİ ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II), % DA


SPIRTLİ ICHIMLIKLAR

aprel	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning apreliga nisbatan
2020- yil	100,9	102,5	
2021- yil	101,3	103,9	109,4
2022- yil	100,8	102,9	109,4
2023- yil	100,9	102,7	110,8


Aroq




Vino



Konyak




Pivo




TAMAKI MAHSULOTLARI

aprel	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning apreliga nisbatan
2020- yil	100,4	104,5	
2021- yil	100,7	106,6	113,8
2022- yil	100,9	103,0	108,2
2023- yil	101,3	103,4	110,4

Sigaret



Boshqa tamaki mahsulotlari




o‘tgan oyga nisbatan o‘tgan yilning dekabriga nisbatan o‘tgan yilning apreliga nisbatan

“KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III), % DA


MART



KIYIM



POYAFZAL




○ o'tgan oyga nisbatan ● o'tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o'tgan yilning apreliga nisbatan

o'tgan oyga nisbatan				o'tgan yilning dekabriga nisbatan				o'tgan yilning apreliga nisbatan		
2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
KIYIM TIKISH UCHUN MATERIALLAR										
100,5	100,3	101,4	100,7	102,5	101,3	103,2	101,4	107,7	106,8	108,0
USTKI KIYIM										
100,5	100,2	100,9	100,5	102,5	101,3	102,6	101,3	107,4	107,1	107,9
BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA										
100,2	100,2	101,2	100,4	102,0	101,2	102,5	101,1	106,2	106,8	106,6
KIYIMLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH, TIKISH VA IJARAGA BERISH										
100,5	100,5	101,0	100,4	103,7	102,9	103,8	103,4	110,9	112,5	113,3
BOTINKALAR, TUFLILAR VA BOSHQA POYABZALLAR										
100,2	100,2	101,3	100,4	102,0	101,1	103,2	101,1	105,6	106,6	107,3
POYABZALLARNI TOZALASH, TA'MIRLASH VA IJARAGA BERISH										
100,8	100,6	100,8	100,5	106,4	103,9	103,5	105,7	117,7	112,5	117,7

Joriy yilning aprelida “Kiyim va poyabzal” (III) bo‘limida INI tebranishlari **99,1 %** dan (kiyimlarni ijaraga berish) **101,8 %** gacha (ayollar kolgotkalari) atrofida joylashdi.


“TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV), % DA

TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*





*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan



TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



aprel

o‘tgan oyga nisbatan

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning apreliga nisbatan



“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) bo‘limida turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar bo‘yicha joriy yilning aprelda qisqa muddatli INI **102,1 %** ni tashkil etdi. Ushbu guruhga kiruvchi

Respublikaning ikkita hududida maishiy chiqindilarni yig‘ish xizmatlari uchun to‘lov qiymati **8,8 %** ga oshdi.

Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI respublika bo‘yicha o‘rtacha **101,7 %** ni tashkil etdi.


Uy-joylar ijarasi aprel oyida **100 %** lik darajadan **0,1** foiz bandga past bo‘ldi.

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish uchun materiallar bo‘yicha INI aprel oyida **102,1%** ga yetdi.


“UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V), % DA

aprel


MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI




MAISHIY USKUNALAR




KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR




UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o‘tgan yilning apreliga nisbatan

2023- yilning aprelida “Mebel va uy-ro‘zg‘or asboblari” guruhida INI tebranishlari yuqori chegarasi **101,8 %** ga yetdi (yumshoq mebellar to‘plami). “Maishiy uskunalar” guruhida INI tebranishlari diapazoni **100,2 %** dan (changyutgich) **101,5 %** gachani (kir yuvish mashinasi) tashkil etdi. Kundalik turmushda va bog‘dorchilikda ishlatiladigan uskunalar va moslamalar bo‘yicha qisqa muddatli INI yuqori chegarasi oy davomida **101,2 %** darajasida (lopatalar, ketmon, panshax) qayd etildi. “Uy xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq holda ishlatiluvchi tovarlar va xizmatlar” guruhida plastmas chelaklar narxida pasayish (narx indeksi **99,5 %**) qayd etilgan bo‘lsa, tebranishlarning yuqori chegarasi yuqori chegarasi **102,8 %** ga (gilamlar va gilam mahsulotlarini yuvish va tozalash bo‘yicha xizmatlar) yetdi.




aprel

o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning martiga nisbatan




DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI






AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR




SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




Dori vositalari INI 2023- yilning aprelida **101,9 %** ni, ambulatoriya stomatologik xizmatlar bo‘yicha **100,1 %** ni, ambulatoriyada davolash bo‘yicha boshqa xizmatlarda **102,2 %** ni, statsionar reabilitatsiya xizmatlari bo‘yicha **101,2 %** ni, diagnostika vizualizatsiyasi va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari bo‘yicha **100,3 %** ni tashkil etdi.

aprel


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR



2023- yilning aprelda o‘tgan oydagı kabi benzin va propan narxlarida pasayish qayd etildi.


Benzinning qisqa muddatli INI **96,3 %** darajasida, propanda esa **87,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning aprel oyida avtomobil to‘xtash joylari xizmatlari bo‘yicha INI **103,1 %** ni, moylash materiallari bo‘yicha **101,2 %** ni tashkil etdi. Havo transportida yo‘lovchi tashish transporti xizmatlari bo‘yicha o‘tgan oyga nisbatan INI **102,7 %** ni, temir yo‘l va avtomobil transportida **100,5 %** ni tashkil etdi.



aprel

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI




Axborot va kommunikatsiya uskunalari INI joriy yilning aprelda **100,3 %** ni tashkil etib, 2021-2022- yillarning mos oyidagi ko‘rsatkichga nisbatan past, biroq 2020- yilning apreldagiga nisbatan baland bo‘ldi.

Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,9 %** dan (ovozlarni qabul qilish, yozish va aks ettirish uchun uskunalari) **100,3 %** gacha (mobil aloqa uskunalari, noutbuk, televizor) chegarada joylashdi.

2022- yilning apreliga nisbatan guruhdagi INI **104,6 %** ni tashkil etib, so‘nggi uch yilning aprel oyi uchun eng past ko‘rsatkich bo‘ldi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



Axborotlashtirish xizmatlari orasida joriy yilning aprelda narxlarning o‘sishi faqatgina axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarda qayd etilib, oylik INI **99,4 %** ni tashkil etdi.


“DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX), % DA

“Dam olish, sport va madaniyat” (IX) bo‘limida 2023- yilning aprel oyida INI o‘tgan oyga nisbatan **101,1 %** ni tashkil etdi. Bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,8 %** dan (A4 formatidagi qog‘oz) **116,2 %** gacha (turistik sayohatlar) oraliqda joylashdi. Shu bilan birga, turistik xizmat narxlari respublikaning to‘rtta hududida o‘ydi.


aprel




DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR




KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH




BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI



GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



■ o‘tgan oyga nisbatan ■ o‘tgan yilning dekabriga nisbatan ■ o‘tgan yilning apreliga nisbatan

MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM

aprel	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
o’tgan oyga nisbatan	100,0	100,0	100,0	101,0
o’tgan yilning dekabriga nisbatan	100,0	100,2	100,2	97,1
o’tgan yilning apreliga nisbatan		115,5	113,4	97,8



2023- yilning aprelida ta’lim sohasidagi narxlarning o’rtacha darajasida aytarlik o’zgarishlar qayd etilmadi.

Narxlarning o’sishi faqatgina bosqichlarga bo’linmagan ta’lim xizmatlarida hamda xususiy bog’chalar xizmatlarida qayd etildi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari xizmatlari bo’yicha qisqa muddatli INI joriy yilning aprel oyida **100,3 %** ni, repetitorlar xizmatlari **100,5 %** ni tashkil etdi.

OLIY TA’LIM

aprel	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
o’tgan oyga nisbatan	100,0	100,0	100,0	100,0
o’tgan yilning dekabriga nisbatan	105,2	100,0	100,0	100,1
o’tgan yilning apreliga nisbatan		95,9	109,8	102,3


BOSQICHLARGA BO’LINMAGAN TA’LIM

aprel	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
o’tgan oyga nisbatan	100,0	100,6	100,3	100,2
o’tgan yilning dekabriga nisbatan	101,2	103,1	101,9	100,1
o’tgan yilning apreliga nisbatan		108,2	111,2	108,0


“RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI), % DA

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR


aprel oyida o‘tgan oyga nisbatan





aprel oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



aprel oyida o‘tgan yilning apreliga nisbatan



MEHMONXONALAR XIZMATLARI



Joriy yilning aprelida umumiy ovqatlanish sohasida INI **100,9 %** ni tashkil etdi. Kafe, oshxona va tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalardagi tayyor taomlar bo‘yicha qisqa muddatli INI **100,6-101,0 %** atrofida shakllandi.



2023- yilning aprelida mehmonxonalar xizmatlari narxlari o‘tgan oydagidan pastroq darajada o‘tdi.

Narx o‘shishi faqatgina mehmonxonalar xizmatlarida (**100,4 %**) qayd etilgan bo‘lsa, dam olish markazlari va sanatoriylar xizmatlari bo‘yicha narxlar joriy yilning martidagi darajada qoldi.

“SUG‘URTALASH VA MOLIVAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII), % DA

SUG‘URTA



aprel	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning apreliga nisbatan
2020- yil	100,0	100,0	
2021- yil	100,0	100,0	100,0
2022- yil	100,0	100,0	100,0
2023- yil	100,0	100,0	100,0

MOLIVAVIY XIZMATLAR



aprel	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning apreliga nisbatan
2020- yil	100,0	100,1	
2021- yil	99,9	101,2	108,1
2022- yil	101,4	102,9	102,5
2023- yil	100,0	102,7	108,7

Joriy yilning aprelda kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozoridagi narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.


Moliyaviy xizmatlar orasida narxlarning sezilarsiz tebranishlari bank orqali pul mablag‘larini o‘tkazish xizmatlarida qayd etildi. Ushbu xizmat turi bo‘yicha INI oy davomida **99,8 %** ni tashkil etdi. Bu holat milly valyutaning AQSH

dollariga nisbatan kursi tebranishlari va buning natijasida xorijiy valyutada pul mablag‘larini o‘tkazish uchun komission yig‘imlarning o‘zgarishlari bilan bog‘liq.

“MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % DA


aprel

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




Joriy yilning apreli-da guruhga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,6 %** dan (atirlar), **102,1 %** gacha (tualet qog‘ozi) oraliqda joylashdi.

SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR



Ushbu guruhga kiruvchi tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning fevralida **100,1 %** dan (ayollar sumkalari, maktab ryukzaklari), **101,1 %** gacha (quyoshdan saqlovchi ko‘zoynaklar) oraliqda joylashdi.

BOSHQA XIZMATLAR



Boshqa xizmatlar bo‘yicha 2023- yilning apreli-dagi qisqa muddatli INI **100,4 %** ga yetib, diniy xizmatlar (**100,5 %**) hamda nusxa ko‘chirish (kserokopiya) xizmatlari narxining o‘zgarishi (**101,2 %**) ta‘sirida shakllandi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta‘sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Narx indeksi salmog‘i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:


- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

o‘tgan oyga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH
SUR‘ATIGA TA‘SIRI, f.d.



JAMI TA‘SIRI +0,82 f.d.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.



JAMI TA’SIRI +3,28 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘zgarishining joriy yil aprel oyidagi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘sinh sur‘atiga ta’siri **+0,50 f.d.** ni tashkil etdi. Transport sohasida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, uning hisobiga yig‘ma INI **0,03 f.d.** pasaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishi hisobiga 2023- yilning yanvar-apreldagi yig‘ma INI **1,91 f.d.** o’sdi, transport va sog‘liqni saqlash sohalaridagi narxlar o‘zgarishi yig‘ma ko‘rsatkichga **0,51 f.d.** qo’shdi. Boshqa bo‘limlarning ta’siri past darajada bo‘ldi.

2023- YIL APREL OYIDA O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI, F.D.

o‘tgan yilning apreliga nisbatan	YIG‘MA INI O‘SISH SUR‘ATIGA TA’SIRI, f.d.	UMUMIY TA’SIR DARAJASIDAGI ULUSHI, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	5,35	48,6
Spirтли ichimliklar, tamaki mahsulotlari	0,10	0,9
Kiyim va poyabzal	0,91	8,3
Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari	0,54	4,9
Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish	0,78	7,1
Sog‘liqni saqlash	1,11	10,1
Transport	0,83	7,5
Axborot va aloqa	0,03	0,3
Dam olish, sport va madaniyat	0,27	2,5
Ta’lim	0,06	0,5
Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,42	3,8
Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar	0,02	0,2
Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,58	5,3

Jami ta’siri +11,00 f.d.

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari tebranishi hisobiga 2023- yilning aprelida yillik nisbatdagi yig‘ma INI umumiy **11,00 f.d.** o‘sinh sur‘atiga **5,35 f.d.** ta’sir etdi. Shu tariqa, ushbu bo‘lim hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar jami ta’sirining **48,6 %** i to‘g‘ri keldi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlarining jami ta’siri **5,65 f.d.**, yoki **51,4 %** ni tashkil etdi.



Narxlar statistikasi boshqarmasi,
tel.: +99871 202-80-36, 202-81-74